

QO'QON UNIVERSITETI
FILOLOGIYA KAFEDRASI
MEHNAT BOZORI VA TA'LIM EHTIYOJLARI HAMDA
ILMIY-TADQIQOTNING SO'NGGI TENDENSIYALARI BO'YICHA
OCHIQ AXBOROT E'LONLARI TO'PLAMI

2025–2026 o'quv yili

Ushbu to'plam Qo'qon universiteti Filologiya kafedrası tomonidan 2025–2026 o'quv yilida ta'lim dasturlari, kafedra ish rejasi va hisoboti, Action Plan monitoringi, bitiruvchilar bandligi, amaliyot bazalari hamda manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik jarayonida yig'ilgan mehnat bozori talablari, ta'lim ehtiyojlari va ilmiy-tadqiqot tendensiyalarini ochiq e'lon shaklida taqdim etish maqsadida tayyorlandi. To'plam 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili hamda 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish: rus tili bakalavriat ta'lim yo'nalishlarini qamrab oladi.

E'lonlar uch yo'nalish bo'yicha guruhlangan: (1) mehnat bozori va kasbiy talab, (2) ta'lim ehtiyojlari, (3) ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalari. Xalqaro metodik asos sifatida CEFR Companion Volume, UNESCOning sun'iy intellekt kompetensiyalari va generativ AI bo'yicha tavsiyalari, DigCompEdu raqamli kompetensiyalar yondashuvi hamda Dr. Werner Ramon Leyendecker (SES dasturi, Germaniya) tomonidan o'tkazilgan xalqaro ekspertiza natijalari inobatga olindi.

I. BO'LIM: MEHNAT BOZORI VA KASBIY TALAB BO'YICHA E'LONLAR

E'LON № 1 60230100 – FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH: O'ZBEK TILI BITIRUVCHILARIGA TALABLAR		
MA'LUMOT TURI	MAZMUN	MANBA / TASDIQ
Asosiy kasbiy faoliyatlar	O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi, filolog-tadqiqotchi, matn muharriri, nashriyot va OAV xodimi, tarjimon, milliy adabiy meros bo'yicha mutaxassis.	60230100 malaka talabi; kafedra va Karyera markazi monitoringi, 2025–2026
Til va adabiy-filologik kompetensiya	O'zbek adabiy tili normalarini mukammal egallash, klassik va zamonaviy adabiyot namunalarini tahlil qilish, nutq madaniyati va notiqlik san'ati.	DTS 60230100; Tilshunoslik va Adabiyotshunoslik fanlari dasturi

Pedagogik-metodik ko'nikmalar	Darsni loyihalash, kommunikativ va matnga asoslangan ta'lim, sinfni boshqarish, differensial yondashuv, o'quv natijalarini baholash va qayta aloqa berish.	O'zbek tili o'qitish metodikasi fani; amaliyot monitoringi
Raqamli va AI kompetensiyalar	HEMIS/LMS, elektron matnlar va lug'atlar bilan ishlash, raqamli korpus vositalari, mas'uliyatli AI foydalanish.	Kafedra Action Plan; UNESCO AI va DigCompEdu
Yumshoq ko'nikmalar	Notiqlik, jamoada ishlash, taqdimot, moslashuvchanlik, vaqtni boshqarish, akademik halollik va kasbiy etika.	Ish beruvchilar bilan muloqot va bitiruvchilar monitoringida qayd etilgan umumiy talablar
Mehnat bozori segmentlari	Umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablar, akademik litseylar, nashriyot va tahririyatlar, OAV, madaniyat-meros muassasalari, tarjima markazlari.	Amaliyot bazalari va hamkor tashkilotlar bilan tuzilgan hujjatlar; kafedra yillik hisoboti

E'LON № 2 60230100 – FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH: RUS TILI BITIRUVCHILARIGA TALABLAR

MA'LUMOT TURI	MAZMUN	MANBA / TASDIQ
Asosiy kasbiy faoliyatlar	Rus tili va adabiyoti o'qituvchisi (milliy maktablarda), filolog, tarjimon, muharrir, xalqaro aloqalar bo'yicha til mutaxassisi.	60230100 malaka talabi; kafedraning 2025–2026 fanlar taqsimoti
Til va kommunikativ kompetensiya	Rus tilining og'zaki va yozma shakllarini B2–C1 darajasida egallash, ikki tillilik sharoitida qiyosiy-tipologik tahlil, tarjima va madaniyatlararo muloqot.	Amaliy grammatika va fonetika; Tarjima nazariyasi va amaliyoti fanlari

Pedagogik-metodik ko'nikmalar	Rus tilini xorijiy/ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi, o'quv materiallarini moslashtirish, talabalar bilimni mezon asosida baholash.	Rus tili o'qitish metodikasi fani; kafedra ochiq dars monitoringi
Raqamli va AI kompetensiyalar	Elektron o'quv materiallari, audio-video kontent, raqamli lug'at va tarjima vositalari, akademik matn tahriri.	Kafedra ish rejasi; DigCompEdu
Yumshoq ko'nikmalar	Madaniyatlararo muloqot, jamoada ishlash, vaqtni boshqarish, kasbiy etika va mas'uliyat.	Ish beruvchilar bilan muloqot va bitiruvchilar monitoringida qayd etilgan umumiy talablar
Mehnat bozori segmentlari	Milliy maktablar va til markazlari, tarjima va matbuot xizmatlari, xalqaro tashkilotlar va konsullik muassasalari, nashriyotlar.	Amaliyot bazalari va hamkor tashkilotlar bilan tuzilgan hujjatlar

II. BO'LIM: TA'LIM EHTIYOJLARI BO'YICHA E'LONLAR

E'LON № 3 O'QUV DASTURIDAGI DOLZARB EHTIYOJLAR — FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH: O'ZBEK TILI		
ANIQLANGAN EHTIYOJ	JORIY HOLAT	TAKOMILLASHTIRISH CHORASI
Mustaqil ta'lim va ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish.	Fan dasturlarida amaliy va mustaqil ta'lim mashg'ulotlari ulushi cheklangan.	Germaniya (SES) tajribasi asosida sillabuslarga mustaqil ta'lim va kichik tadqiqot topshiriqlarini bosqichma-bosqich joriy etish.
Fan sillabuslarini xalqaro standartlarga moslashtirish.	Dr. Werner Ramon Leyendecker (SES, Germaniya) tashrifi	Barcha fanlar sillabusini xalqaro andozalar asosida qayta ko'rib chiqish va 2026–2027 o'quv yiliga to'liq joriy etish.

	natijasida dastlabki tavsiyalar berilgan.	
Raqamli va AI asosidagi filologik ta'lim.	HEMIS/LMS mavjud, ammo maxsus filologik-raqamli tadqiqot vositalari yetishmaydi.	Kompyuterlashtirilgan lingvistik laboratoriya tashkil etish, AI savodxonligi bo'yicha o'qituvchilar treningi o'tkazish.
Xalqaro nashr savodxonligini oshirish.	Maqola yozish va xalqaro jurnallarga topshirish tajribasi cheklangan.	Ilmiy yozuv klinikasi va Scopus/Web of Science talablariga oid muntazam seminarlar tashkil etish.
Amaliyot va ish beruvchi fikrini tizimlashtirish.	Amaliyot bazalari mavjud, biroq tizimli fikr-mulohaza yig'ish mexanizmi kuchsiz.	Ish beruvchilar bilan yillik so'rovnoma va amaliyot yakunida majburiy baholash varaqasini joriy etish.

**E'LON № 4 O'QUV DASTURIDAGI DOLZARB EHTIYOJLAR —
FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH: RUS TILI**

ANIQLANGAN EHTIYOJ	JORIY HOLAT	TAKOMILLASHTIRISH CHORASI
Ilmiy darajali (PhD) kadrlar salohiyatini oshirish.	Professor-o'qituvchilarning katta qismida ilmiy daraja mavjud emas, bir nechtasi doktorantura bosqichida.	Doktorantura bosqichidagi xodimlarga "ustoz-shogird" tizimini kuchaytirish va ilmiy monitoringni muntazamlashtirish.
Talabalar davomati va o'zlashtirishini tizimli kuzatish.	Oylik monitoring yo'lga qo'yilgan, biroq raqamli tahlil vositalari yetarli emas.	HEMIS asosida avtomatlashtirilgan davomat va o'zlashtirish tahlili tizimini joriy etish.
Xalqaro hamkorlikni kengaytirish.	Yo'nalish bo'yicha xalqaro aloqalar boshqa yo'nalishlarga nisbatan cheklangan.	Rus tili o'qitiladigan xorijiy OTMlar bilan hamkorlik shartnomalarini ko'paytirish,

		talaba-o'qituvchi almashinuvini yo'lga qo'yish.
Zamonaviy metodik materiallar bilan ta'minlash.	Darslik va qo'llanmalarning yangilanish sur'ati past.	Yangi avlod metodik qo'llanmalarini ishlab chiqish va elektron shaklda talabalarga taqdim etish.
Amaliyot va ish beruvchi bilan aloqani rasmiylashtirish.	Amaliyot shartnomalari mavjud, fikr-mulohaza tizimi rasmiylashtirilmagan.	Yillik ish beruvchilar so'rovnomasi va bitiruvchilar monitoringini kafedra Action Planiga kiritish.

III. BO'LIM: ILMIY-TADQIQOTNING SO'NGGI TENDENSIYALARI BO'YICHA E'LONLAR

E'LON № 5 O'ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGIDAGI TADQIQOT TENDENSIYALARI (2025–2026)		
TENDENSIYA	MAZMUN VA AHAMIYATI	O'QUV DASTURIGA TA'SIRI
Korpus lingvistikasi va raqamli filologiya	O'zbek tili milliy korpusi va elektron matnlar asosida tilshunoslik tadqiqotlarini olib borish imkoniyatlarini kengaytiradi.	Tilshunoslik fanlariga korpus asosidagi amaliy topshiriqlarni kiritish.
Kognitiv va psixolingvistika	Til va tafakkur o'zaro aloqasini o'rganishning zamonaviy yondashuvlari.	Nazariy fanlarga kognitiv-psixolingvistik yondashuvlarni integratsiya qilish.
Mumtoz adabiyot va zamonaviy tahlil metodlari	Klassik adabiy meros namunalarini zamonaviy adabiyotshunoslik metodlari bilan qayta o'rganish.	Adabiyotshunoslik fanlariga qiyosiy va zamonaviy tahlil metodlarini kiritish.

AI yordamida til o'rganish va matn tahlili	Sun'iy intellekt vositalari matn tahlili va til o'rgatishda faol qo'llanilmoqda.	AI etikasi bo'yicha yo'riqnoma va raqamli dars materiallarini joriy etish.
Ilmiy metodologiya va akademik nashr	Xalqaro jurnallarda nashr etish talablari tobora kuchaymoqda.	Ilmiy ish yozish va taqdimot mahorati fanini kuchaytirish.

E'LON № 6 RUS TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGIDAGI TADQIQOT TENDENSIYALARI (2025–2026)

TENDENSIYA	MAZMUN VA AHAMIYATI	O'QUV DASTURIGA TA'SIRI
Qiyosiy-tipologik tilshunoslik	Rus va o'zbek tillarini qiyosiy o'rganish ikki tillilik sharoitida dolzarb yo'nalish hisoblanadi.	Qiyosiy tilshunoslik mavzularini fan dasturlariga kiritish.
Tarjima texnologiyalari	Raqamli tarjima vositalari va mashina tarjimasi sifatini oshirish tendensiyasi kuchaymoqda.	Tarjima nazariyasi fanlariga raqamli vositalar bo'yicha amaliy mashg'ulotlar qo'shish.
Zamonaviy matn va diskurs tahlili metodlari	Rus adabiyotshunosligida matn va diskurs tahlilining yangi metodlari qo'llanilmoqda.	Adabiyotshunoslik fanlariga diskurs tahlili elementlarini kiritish.
Ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi	Rus tilini xorijiy/ikkinchi til sifatida o'qitishning yangi metodlari ishlab chiqilmoqda.	Metodika fanini yangilangan yondashuvlar bilan boyitish.
Raqamli gumanitar fanlar	Elektron matnlar va raqamli arxivlar bilan ishlash imkoniyatlari kengaymoqda.	Adabiy meros va matn tahlili fanlariga raqamli arxiv topshiriqlarini kiritish.

**E'LON № 7 KAFEDRANING ILMIY-TADQIQOT YO'NALISHLARI VA
OCHIQ NATIJALAR (2025–2026)**

TADQIQOT YO'NALISHI	KAFEDRADAGI TAYANCH FAN / YONDASHUV	MANFAATDOR TOMONLAR UCHUN OCHIQ NATIJA	HOLATI / KANALI
O'zbek tilshunosligi va korpus tadqiqotlari	Tilshunoslik; Amaliy tilshunoslik	Ilmiy maqolalar, metodik tavsiyalar	Kafedra seminari; rivojlantirilmoqda
Mumtoz va zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligi	Adabiyotshunoslik; Adabiy tanqid	Maqolalar va talabalarning ijodiy-tadqiqot loyihalari	Fanlar va ilmiy seminarlar doirasida
Rus tilshunosligi va qiyosiy tilshunoslik	Qiyosiy tilshunoslik; Tarjimashunoslik	Metodik qo'llanmalar, tarjima namunalari	Hamkorlik asosida rejalashtirilgan
Rus adabiyotshunosligi va matn tahlili	Adabiyotshunoslik; Matn lingvistikasi	Maqola va konferensiya tezislari	Rivojlantirish bosqichida
Xorijiy tilni (ingliz tili) o'qitish metodikasi va baholash	Metodika; Baholash nazariyasi	Ochiq dars tahlillari, namunalari test	Kafedra seminari; LMS
Raqamli/AI asosidagi filologik ta'lim	LMS; korpus vositalari	AI etikasi bo'yicha yo'riqnoma, raqamli materiallar	Rivojlantirish bosqichida
Doktorantura va ilmiy kadrlar tayyorlash	Ustoz-shogird tizimi; ilmiy metodologiya	Doktorlik tadqiqotlari natijalari, seminarlar	2027–2028- yillarga rejalashtirilgan

IV. BO'LIM: UMUMIY XULOSALAR VA MANFAATDOR TOMONLARGA MUROJAAT

E'LON № 8 MONITORING NATIJALARI BO'YICHA UMUMIY XULOSALAR	
№	ASOSIY XULOSA
1	Ikkala ta'lim yo'nalishi bo'yicha ham mehnat bozori til, pedagogik-metodik, filologik-tahliliy, raqamli va madaniyatlararo kompetensiyalarning uyg'unligini talab qiladi.
2	O'zbek tili yo'nalishida ilmiy salohiyat (PhD/DSc) nisbatan yuqori bo'lsa-da, xalqaro nashr faolligini oshirish, rus tili yo'nalishida esa ilmiy darajali kadrlar sonini ko'paytirish ustuvor ehtiyoj hisoblanadi.
3	Xalqaro ekspertiza (Dr. Werner Ramon Leyendecker, SES, Germaniya) natijalari sillabuslarni yangilash va mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhim asos bo'ldi.
4	Raqamli ta'lim va AI vositalaridan foydalanish texnik ko'nikma bilan cheklanmasdan, akademik halollik, ma'lumot xavfsizligi, tanqidiy fikrlash va o'qituvchi nazoratini ham qamrab olishi kerak.
5	Ish beruvchilar, bitiruvchilar, talabalar va xalqaro hamkor tashkilotlardan olinadigan muntazam fikr o'quv dasturlari hamda kafedra Action Planining asosiy yangilanish manbai bo'lishi lozim.
6	Yig'ilgan ma'lumotlar rasmiy veb-sahifa, LMS/HEMIS, ijtimoiy tarmoqlar va axborot stendi orqali ochiq e'lon qilinib, manfaatdor tomonlarning takliflari hujjatlashtiriladi.

E'LON № 9 MANFAATDOR TOMONLARGA MUROJAAT VA TAKLIFLAR		
MANFAATDOR TOMON	MUROJAAT MAZMUNI	HAMKORLIK SHAKLI
Ish beruvchilar va ta'lim tashkilotlari	Bitiruvchidan kutiladigan til, metodika, filologik tahlil, raqamli va kasbiy ko'nikmalarni belgilashda o'z	Yillik so'rovnoma; Kengash muhokamasi;

	fikringizni bildiring hamda amaliyot va ish o'rinlarini taklif eting.	amaliyot shartnomasi; Guest Lecturer
Talabalar	Til va filologik tayyorgarlik darajangizni muntazam bildiring, to'garak, ilmiy loyiha va amaliyot imkoniyatlaridan foydalaning, o'quv sifati bo'yicha aniq taklif bering.	Konsultatsiya; ilmiy to'garaklar; anonim so'rovnoma; Student Voice uchrashuvi
Bitiruvchilar	Ish tajribangiz, zarur ko'nikmalar va dasturdagi kuchli yoki takomillashtirilishi kerak bo'lgan jihatlar haqida fikr bildiring.	Alumni so'rovnomasi; mentorlik; bo'sh ish o'rinlari; kafedra uchrashuvlari
Hamkor universitetlar	O'quv reja va tadqiqot yo'nalishlarini qiyoslash, qo'shma seminar, professor-o'qituvchi va talaba mobilligi hamda hammualliflik loyihalarini rivojlantirish taklif etiladi.	Akademik mobillik; qo'shma seminar; guest lecture; ilmiy loyiha
Davlat idoralari va professional hamjamiyatlar	Hududiy pedagog kadrlarga ehtiyoj, sertifikat talablari, ta'lim sifati va til xizmatlari bo'yicha ma'lumot almashish taklif etiladi.	Yillik axborot almashish; ekspert uchrashuvi; hududiy ehtiyojlar tahlili
Keng jamoatchilik	Ushbu to'plam manfaatdor tomonlar uchun ochiq manba hisoblanadi. Fikr-mulohaza va takliflar keyingi monitoring, Kengash qarori va Action Planda ko'rib chiqiladi.	Universitet rasmiy veb-sayti; kafedra sahifasi; HEMIS/LMS; Telegram/Instagram; axborot stendi

Filologiya kafedrasi mudiri:



M.Ergashev